

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA MAMLAKATNING TURIZM SALOHIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
saidakbarkhon.azamov@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda turizm soxasi yanada rivojlantirishda amalga oshirilayotgan ishlarga alohida ahamiyat qaratilgan. Mamlakatimda turizm sohasini qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirish majmuaviy yondashuv asosida, turizm sohasining maqsadi va mahalliy aholi manfaatlari, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish yo'nalishlari uyg'unlashtiradigan turizmni tiklash bo'yicha strategik rejani ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. **Mamlakatda sayohat va dam olish uchun xavfsiz turizm zonalarini hamda imijini mustahkamlash, turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ham soha oldidagi dolzarb vazifalarni o'z ichiga oladi.**

Kalit so'zlar: turizm, iqtisodiyot, aholi, xizmat, soha, jarayon, tarmoq, yo'nalish, salohiyat, ziyorat.

**ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ
ВЛАСТИ СТРАНЫ В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ**

Аъзамов Саидакбархон Авазхон ўгли
Ташкентского государственного экономического университета
saidakbarkhon.azamov@bk.ru

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется работе, проводимой в целях дальнейшего развития туристической отрасли в нашей стране. При разработке стратегии оживления туристического сектора в моей стране планирование туризма требует разработки стратегического плана восстановления туризма, который сочетает в себе цели туристического сектора и интересы местных жителей, направления устойчивого развития страны. национальная и региональная экономика, основанная на комплексном подходе. Укрепление имиджа безопасных туристических зон для путешествий и отдыха в стране, совершенствование системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров для туристической сети также включает в себя актуальные задачи, стоящие перед отраслью.

Ключевые слова: туризм, экономика, население, услуга, отрасль, процесс, сеть, направление, потенциал, паломничество.

PROSPECTS FOR FURTHER DEVELOPMENT OF THE TOURISM AUTHORITY OF THE COUNTRY IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR

A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li
Tashkent State University of Economics
saidakbarxon.azamov@bk.ru

Abstract. This article focuses on the work carried out in the further development of the tourism industry in our country. When developing a strategy for revitalizing the tourism sector in my country, tourism planning requires the development of a strategic plan for the restoration of tourism, which combines the goals of the tourism sector and the interests of local residents, the directions of sustainable development of the national and regional economy, based on an integrated approach. Strengthening the image of safe tourism zones for travel and recreation in the country, improving the system of training, retraining and upgrading the skills of personnel for the tourism network also includes the urgent tasks facing the industry.

Key words: tourism, economy, population, service, sector, process, network, direction, potential, pilgrimage.

Kirish

Turizm sohasi bugungi kunda butun dunyo miqyosida jahon iqtisodiyotida muhim o'rin tutayotgan va turli sohalarga o'z ta'sirini o'tkazayotgan keng qamrovli sohalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning turizm sohasidagi salohiyatini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar hamda tashabbuslar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon turizm xaritasida mustahkamlash va iqtisodiy tomonlama yanada rivojlantirish va uni barqarorligini ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda xalqaro turizm tashriflari pandemiyadan oldingi darajaning qariyb 90 foizga yetdi. 2023 yilning yanvar – sentyabr oylari kesimida olinganda 975 million turist xalqaro miqyosida sayohatni amalga oshirgan bu ko'rsatgich 2022-yilning shu davriga nisbatan 38 foizga oshganidan dalolat beradi. 2023-yilning uchinchi choragi hisoblariga nazar solsak turistlar xalqaro miqyosida 2022-yilning aynan shu davriga nisbatan 22 foiz ko'proq sayohatni amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Mamlakatimizga xorijiy turistlarning tashrifi pandemiyadan oldingi darajaning 98 foizini tashkil etgan edi.

O‘zbekistonda turizm sohasini samarali rivojlantirish bilan birga viza rejimini ham soddalashtirish chora-tadbirlari hamda yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish va ularni soha bilan chambarchas bog‘liq holda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yirik tadbirlarni va xalqaro ilmiy amaliy konferensiyalarni o‘tkazish va xorijiy mutaxassislar bilan o‘zaro tajriba almashish soha rivoji uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Jumladan, “O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident farmonining 58-maqsadida O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi qo‘yilgan. Strategiyada belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va to‘liq ravishda amalga oshirish maqsadida turizmni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Xususan, turizm sohasini va infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida 30 ta yirik turizm klasteri manzilli ro‘yxati tasdiqlandi va ularning faoliyati bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

40 ta qishloq va mahallalarga “turizm mahallasi” maqomini berish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Unga ko‘ra turizm mahallalarini tashkil etish va ularni rivojlantirish vazifalari joriy yildan amalga oshirilishi boshlandi.

Samarqand shahrida 2023-yilning 16-20 oktyabr kunlari Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi o‘tkazildi. Tadbirda 140 dan ortiq davlatdan kelgan delegatsiya a‘zolari, turizm sohasi bo‘yicha mutaxassislar, turizm sohasida faoliyat olib boruvchi rahbarlar hamda yirik kompaniyalar vakillari va tadbirkorlar ishtirok etib, O‘zbekistonning tarixiy qadamjolari va boy madaniy me‘rosi bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 2023-yilda jami umumiy qiymati 9,5 trillion so‘mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganligi hamda jami 9 492 ta yangi ish o‘rni yaratilganligi bu amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘z samarasini berayotganining yaqqol misoli hisoblanadi.


O‘zbekistonga 2023-yilning hisobotlariga nazar solsak xorijiy turistlarning 80,7 foizi qo‘shni davlatlardan, 11,5 foizi qolgan MDH davlatlari hamda 7,8 foizi boshqa davlatlar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, turistlarning o‘rtacha mamlakatda qolishi 4-5 kuni tashkil etib bu ko‘rsatkich 2022-yilga (3 kun) nisbatan 1,5 baravarga ortganini ko‘rish mumkin. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulayliklar va ularning xavfsizligi ta‘minlanganini ko‘rsatadi. Mamlakatimiz turistik xizmatlar eksporti 2 milliard 143,5 million AQSH dollarini tashkil etadi.

Mamlakatimizda joriy yilning 26-sentabrdan “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori kuchga kirdi. Ushbu qaror bilan 2025-yil 1-oktyabrdan boshlab ichki turizm infratuzilmasi bo‘yicha turistlarning xabardorligini ta‘minlash imkonini beruvchi texnik imkoniyatlarni

nazarda tutuvchi yangi loyiha “Tourist map” interaktiv portali sinov tariqasida Samarqand xalqaro aeroportida ishga tushirish reja qilingan.

Ushbu ilova orqali ichki sayyohlar hamda chet ellik turistlar aeroport, temiryo‘l vokzallari, avtovokzallar, tarixiy, madaniy, ko‘ngilochar, ovqatlanish va shu kabi ko‘ngil ochar joylarni hamda ularga boorish uchun mo‘ljallangan marshrutlar haqida ma’lumot olishlari mumkin bo‘ladi. Aholi va chet ellik tashrif buyuruvchi turistlarning sayohat qilish muddati va qiziqishidan kelib chiqqan holda, sayohat rejasini tuzib berish va shtrix kod (QR-kod) orqali mobil qurilmalar uchun yuklab olish imkoniyatlari yaratiladi. Ushbu yangi ishga tushiriladigan ilova eng ko‘p tashrif buyuradigan davlatlarning (ingliz, rus, ispan, turk,) tillari bilan sozlanganligi chet eldan tashrif buyuruvchi mehmonlarning qulayliklari uchun xizmat qiladi.

Ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun Turizm qo‘mitasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va Transport vazirligi bilan birgalikda kelgusi 2025-yilning 1-oktyabriga qadar “Tourist map” interaktiv portalini yaratish ishlarini yakunlash hamda uni Samarqand shahrining xalqaro aeroportida interaktiv portal uskunalari joylashtirilishni rejalashtirgan. “Tourist map” intreaktiv uskunalari atrofida bepul Wi-Fi zonalarini tashkil etish internet tezligini yanada oshirish turistlar qulayliklari hisobga olingan.



1-rasm Dunyo bo‘ylab mobil dasturiy ta’minotlardan foydalanish darajasi¹

1-rasm ma’lumotlari shuni ko‘rsatyaptiki dunyo turiz bozorida axborot texnologiyalari ommalashib foydalanish uchun va turizmning har bir turizm xizmatlarini rivojlanishida o‘z xissasini qo‘shmoqda.

Jadval

¹ Erkayeva, G., & Vayskulov, R. (2022). *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 348-356

T/r	Mobil ilova turlari	Mos mobil ilovalar
1.	Bronlashtirish dasturlari	Trivago, Booking.com, Tripadvisor
2.	Elektron xaritalar	Google maps, Yandex karti, 2GIS
3.	Tarjimon ilovalar	Google tarjimon, Яндекс Переводчик, TripLingo
4.	Navigatsion ilovalar	Waze, Яндекс.Navigator
5.	Aviaqatnovlar uchun ilovalar	App In The Air, Flio, Skyscanner

Turistlar uchun mo'ljallangan ilovalar²

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida axborot texnologiyalari mutaxassisilari bilan hamkorlikda bu kabi ilovalarni yaratishlar hamda uni soha rivojida yetakchi bosqichga olib chiqish reja qilingan. Yaratilgan ilovalar esa Play Store va App store kabi platformalarga ishlash uchun mo'ljallangan.

Turizm qo'mitasi "Tourist map" interaktiv portalini mamlakatning boshqa turizm oqimi yuqori bo'lgan hududlarning aeroport, temiryo'l vokzallari, avtovokzallarida ishga tushirishni 2026-yil ikkinchi choragiga qadar hukumatga asoslantirilgan takliflar asosida kiritishni rejalashtirgan.

Mamlakatimizda joriy yilning o'tgan to'qqiz oy xisobotiga qaraydigan bo'lsak tashrif buyuruvchi turistlar katta qismi Tojikistondan tashrif buyurgan. Statistika agentligining ma'lumotlariga qayadigan bo'lgan respublikamizga joriy yilning yanvar-sentabr oylarida jami 5,7 mln nafar turistlar sayohat maqsadida tashrif buyurgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga solishtiradigan bo'lsak 825,8 ming nafar turistga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Agentlikning ma'lumotlariga qaragan mamlakatimizdan xotijga turistik maqsadda chiqqanlarning soni joriy yilning sakkiz oyiga bo'yicha to'rt milliondan ziyodni tashkil etadi.

O'zbekiston kelgusi yildan boshlab bir qator turizmning yangi turlari joriy qilishni rejalashtirmoqda: mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni takomillashtirishni o'z ichiga oluvchi sanoat turizmi; oltin, ruda va boshqa mineral resurslar qazib oluvchi konlarni faoliyatini hamda faoliyat yuritmayotgan geologik obektlarda texnologik jarayonlarni, tog' jinslarini portlatish jarayonlarni o'z ichiga oluvchi maxsus mashg'ulotlarni va ularni bexatar masofadan kuzatish, mutaxassislar bilan muloqotni amalga oshirish, tog' releflari bo'yicha ekskursiyalarni tashkil qilishni nazarda tutuvchi geologiya turizmi; ilmiy-tadqiqot institutlari va ulardagi maxsus laboratoriyalar, observatoriyalar, Fanlar akademiyasi va uning tasarufidagi tashkilotlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan yaqindan tanishishni o'z ichiga oluvchi ilmiy turizm; harbiy sohada amalga oshirilayotgan yangiliklar, harbiylarning harbiy tayyorgarligi, shu jumladan o'quv mashg'ulotlarda yaqindan ishtirok etishni nazarda tutuvchi harbiy turizm; davlat tashkilotlari hamda

² Erkayeva, G., & Vayskulov, R. (2022). *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 348-356.

organlari va ularning tarixi va faoliyatini aks ettiruvchi davlat-boshqaruv turizmi kabi yangi turlarni o'z ichiga oluvchi loyihalar ichki turizm bozoriga kirib kelishi reja qilinmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Mamlakatimizda turizm salohiyatini yanada rivojlanish va uning jahon miqyosidagi o'rnini yanada mustahkamlash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Xizmatlar sifatini oshirish va barqaror amalga oshirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish va ularga zamon talabidan kelib chiqqan holda yechimlar izlash kerakligini bildiradi. O'zbekistonda turistik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish va turizm sohasida amalga oshirilayotgan yangi loyihalarni qo'llab quvvatlash hamda xorijiy tajribalarni mamlakat turizm salohiyatini rivojlantirish borasida qilinayotgan ilmiy yangiliklarni berib borishdan iborat. O'zbekiston turizm salohiyatini xalqaro bozorga yanada keng tanitish uchun mamlakatimizda turizmning yangi turlari va ulardagi yuqori xizmat ko'rsatuvchilarni jalb etish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muhitdinov, X. S., & Shukurov, I. A. (2024). SAMARQAND VILOYATI MINTAQASI TURIZM SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN ILMIY IZLANISHLAR TAHLILI. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 447-454.
2. Rahmonova, M. (2023, December). SMART TURIZM: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 2, No. 8, pp. 31-37).
3. Laylo, B. (2022). TURIZM VA MEHMONDO 'STLIK SANOATIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI.
4. Yoldashov, S. S., Mamishev, O. E., & Qurbonov, S. S. (2021). O'ZBEKISTONNING TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHDA OT TURIZMI (OTDA SAYR QILISH TURLARI) DAN FOYDALANISH MASALALARI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 428-432.
5. Eshtayev, A. A. A. (2023). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIGA GLOBAL TRENDLARNING TA'SIRI.
6. Usmanovna, X. S. (2024). TURIZM SOHASINI RIVOJLANTRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 34(3), 88-98.
7. Fayziyev, O., & Xalikov, S. (2024). O'zbekistonda turizm xizmatlari imkoniyatlari: muammo va yechimlar.
8. Oppoxonov, N. (2024). O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar.